

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

**QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK**

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

**COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES**

2025 Vol. 3 (2)

**www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Uzoq Jo'raqulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir kengashi

Qosimboy Mamurov, Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Nargiza Rashidova, Aidaxon Bumatova, Nigora Sulaymonova, Ilhom Aslonov, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya To'xtaxadjayeva, Olmos Xurramov, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillayev, Nilufar Do'stmamatova, Ozoda Gulyamova, Manzura Abjalova, Nargiza Yusupova, Zebiniso Bekmuradova, Sevinch Yoqubova.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi №308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. "Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" seriyasi – filologiyaning ayni sohalarini qamrab olgan "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzltscls@navoiy-uni.uz

Website: www.uzltscls.tsuull.uz

MUNDARIJA

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Sayyora Shodmonova

“Boburnoma” matnidagi oʻlchov birliklarining kontekstual tarjimasi8

Sadoqat Fayziyeva

Kognitiv stilistika asoslari haqida17

Madinaxon Xayitbayeva

Teatr sanʼatida tarjimaning roli25

Matluba Qudratova

F.M.Dostoyevskiy asarlari tarjimasining lingvistik va madaniy muammolari34

Dilnoza Umirzakova

Animatsion filmlar nomlarini tarjima qilishning lingvopragmatik va madaniy jihatlari40

Elgiza Sobirova

Muqobilsiz leksik birliklar tarjimasi haqida46

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Azamat Xayrullayev

Normurod Norqobilov hikoyalarida konflikt58

Maʼsuma Obidjonova

Ilmiy fantastik hikoyalarda fan-texnika taraqqiyotiga munosabat71

Dilnavoz Najimova

Sharqiy Osiyo adabiy anʼanalarida antologiya tushunchasi: Xitoy adabiyoti misolida79

Dilnoza Dadaboyeva

Jorj Oruellning “1984” romanida inson erkinligi talqini90

CHOGʻISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TERMINSHUNOSLIK

Zebiniso Bekmuradova

Paremik birliklarda xiazm – madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida104

Mahfuzaxon Xomidova

Intertekstuallik va til korpusi113

Gulmira Komilova

Bilingual nutqda estetik buzilish orqali madaniy nutqning ifodasi119

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TERMINSHUNOSLIK

Paremik birliklarda xiazm – madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida

Zebiniso Bekmuradova¹

Abstrakt

Dunyo tilshunosligida muayyan tilga xos xiazm hodisasini semantik-stilistik jihatdan tahlil qilish va uni o'zga qarindosh bo'lmagan til bilan chog'ishtirish, uning har ikki tildagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash tilshunoslikning taraqqiy topishi hamda yangi terminlarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Xiazm hodisasi tadqiqi ko'p yillar davomida tilshunoslarning o'rganish obyekti bo'lib kelgan. Biroq hozirgi tilshunoslikda xiazmni tadqiq qilishga bo'lgan yondashuv ham, uning lingvistik maqomiga doir qarashlar ham xilma-xilligicha qolmoqda. Ushbu maqolada xiazmning nafaqat she'riy matnlarda, balki folklor janrlarida ham qo'llanishi haqida fikr yuritiladi. Ayniqsa, xiazmlarning folklor matnlarida, xususan, maqollarda keng qo'llanilishi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada xiazmlarning millatlararo lingvokulturologik jihatlaridagi o'xshash va farqli tomonlarini yoritish masalasiga ham e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: *Xiazm, xiazmatik konstruksiya, paremiologiya, maqol, folklor, parallelizm.*

Kirish

Xiazm lingvistika sohasida XIX asrdan boshlab termin sifatida ishlatilgan bo'lsa-da, lingvistik hodisa sifatida ancha qadimdan, antik davrdan buyon mavjud bo'lib, u antimetabola, antimetalepsiya va antimetateza kabi atamalar bilan tavsiflangan. Ayniqsa, diniy matnlarda keng qo'llangan bu stilistik vosita nutq tuzilishida alohida estetik va mantiqiy bog'liqlik yaratishga xizmat qiladi. Xiazm mohiyatan elementlarni simmetrik yoki kesishgan tartibda joylashtirish orqali qarama-qarshi ma'nolar, sabab-ta'sir aloqalarini yuzaga keltirish imkonini beradi. Uni stilistik figura sifatida

¹ *Bekmuradova Zebiniso Erkinovna* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD. Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti v.b.dotsenti.

E-pochta: bekmurodovazebo@tift.uz

ORCID ID: 0000-0003-4314-1009

Iqtibos uchun: Bekmuradova Z.E. 2025. "Paremik birliklarda xiazm – madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida". *O'zbekiston til va madaniyat*, 3(2): 104-112.

qaraganda, soʻz va iboralarni AB/BA shaklida joylashtirish asosiy belgilardan biri boʻlib, ayrim hollarda undan murakkab tuzilmalarga ega boʻlishi ham kuzatiladi.

Mazkur figura ikki qismdan tashkil topgan ifodalarni bir-biriga nisbatan simmetrik yoki teskari tartibda joylashtirish orqali parallelizm yoki antitezani yuzaga keltiradi. Agar matndagi birliklar bir xil tartibda joylashtirilsa, ABC/A'B'C' shaklidagi parallellik hosil boʻladi, aksincha, agar birliklar markaz elementi atrofida simmetrik tarzda teskari joylashtirilsa, ABC/markaz elementi/C'B'A' shaklidagi teskari parallellik vujudga keladi.

Xiazm nutq figurasining ildizlari juda qadimgi manbalarga borib taqaladi. U lingvistik hodisa sifatida miloddan avvalgi uch ming yillikda paydo boʻlganligi maʼlum boʻlsa, ayrim xitoy manbalarida uning tarixini miloddan avvalgi oʻn bir ming yillik bilan bogʻlaydigan taxminlar ham uchraydi. Biroq, ritorik sanʼat darajasiga uni yunonlar miloddan avvalgi IV asrda koʻtargan va shu orqali xiazm mantiqiy goʻzallikka ega nutqlar, donishmandona maqollar hamda vaqt sinovidan oʻtgan iboralarni yuzaga keltirgan.

Mamaziyyayev esa tadqiqqa tortilayotgan hodisaga toʻxtalib, "Xiazm faqat qoʻshma gapni shakllantiruvchi sintaktik-stilistik vosita boʻlib, unda qoʻshma gap birinchi qismidagi gap boʻlaklarining oʻrni (tartibi) ikkinchi qism boʻlaklari joylashuviga butunlay teskari holda boʻlishi talab etiladi" [2:15] tarzidagi taʼrifni bergan.

Xiazm semantikasini G. L. Permyakovning maqol va matallarga oid mantiqiy-semantik tasniflash fikri asosida tahlil qilish oʻrinlidir. Biroq, maqol – xalq tafakkurining mahsuli boʻlib, doimo ommaning dunyoqarashi va hayotiy tajribasini aks ettirsa, xiazm esa folklorning bir necha qatlamlarini oʻz ichiga olgan holda, asosan individual fikr va his-tuygʻularni ifodalashda ustunlik qiladi. [1: 215]

Paremiologiya – bu insoniyat tafakkurining yillar davomida sayqallanib, hayot haqiqatlarini mujassam etgan hikmat soʻzlarida namoyon boʻlishidir. U koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga asoslangan xulosalarni shakllantirish natijasida paydo boʻlgan xalq donishmandligini oʻrganadi. Maqol, matal, ibora va aforizmlar – bularning barchasi xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etnik va estetik tuygʻulari hamda ezgu fazilatlarini oʻzida mujassam etgan durdona soʻzlar yigʻindisidir.

Ular avloddan-avlodga ogʻzaki shaklda yetib kelib, ixcham va sodda, qisqa va mazmunli ifodalarda hayot haqiqatlarini jamlagan. "Paremiya" soʻzi yunon tilidan tarjima qilinganda, "chuqur maʼnoli gap, hikmatli soʻz, ibora, maqol, matal" degan mazmunni anglatadi.

Necha asrlardan buyon tildan tilga o'tib, xalqning hayot tarzini o'zida aks ettirib kelayotgan, individual tajriba asosida shakllangan maqollar, matallar, tez aytishlar, so'z o'yinlari, topishmoqlar insonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy hayotga munosabati, axloqiy normasi, millat tarixini va ruhiy holatini ifodalaydi. Rasmiy go'zallik va semantik ixchamlikni birlashtirgan maqollar, har qanday jamiyat uchun boylikdir.

Ular antik davrga to'g'ri keladi, ulardan doimiy tarzda foydalanishda davom etmoqda. Maqollar shakli jihatidan qisqa, lo'nda, sodda, puxta mantiqli, fikran tugallanmagan va siqiq ishlangan bo'ladi. Maqollar kishining ongini o'stiradi, ularni to'g'ri, rostgo'y, mehnatsevar, mard, sabotli va matonatli bo'lishga o'rgatadi, insonlarga ezgu fazilatlarni targ'ib etadi. Fikrni qisqa, aniq ifodalashga o'rgatadi. Aytmoqchi bo'lgan fikrlar obrazli qilib ifodalanadi, birgina maqol yoki matal orqali butun xalqning turmush tarzi va hayot tajribalarini ilg'ab olish qiyin emas.

Maqollar har bir millatning milliy o'zligi, mentaliteti, go'zal qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Shunday ekan, milliy adabiyotda badiiy bo'yoqdorlikni, muallif konsepsiyasini ifodalash uchun paremik birliklardan unumli foydalaniladi. Jumladan, chog'ishtirilayotgan tillardagi maqollarda xiazm hodisasi tadqiq qilinganda o'xshash va farqli jihatlar yuzaga chiqadi.

Bundan tashqari, o'zbek maqollarining xususiyatlari, xuddi fransuz maqollarida bo'lgani kabi faqat bir tekislikda kesishmaydi. Ritmik xususiyat gapning semantik tuzilishiga mos keladi va ritmik simmetriya ikkilik yoki qiyosiy tuzilishdan kelib chiqadi. Ifodasi va qisqaligi bilan ajralib turadigan maqollar murakkab axloqni tushunishni osonlashtirish, mavhum haqiqatlarni konkretlashtirish, sabablarni yana-da tushunarli hamda kulgili ko'rsatish uchun nutq figuralaridan foydalanadi.

Xiazm ham universaldir, chunki uning funksiyalari chegaralarni, stilistik cheklovlarni bilmaydi. U so'zlashuv nutqida, birinchi navbatda, xalq og'zaki ijodida, maqollar, matallar, tez aytishlar, topishmoqlar, xazil-mutoyibalar shaklida qo'llanadi. Bu kabi janrlarda xiazmning qo'llanishi tillararo madaniyatni, ya'ni lingvokulturologik jihatlarini ham namoyon qilishga yordam beradi. Ma'lumki, lingvokulturologiya lisoniy madaniyat bo'lib, bu har bir millatning turmush-tarzi, urf-odatlari, an'analarida o'z aksini topadi. Masalan, fransuz va o'zbek millatining bir-biriga o'xshamaydigan va biri-birini takrorlamaydigan o'z madaniyati bor. Quyidagi misollarda o'zbek va fransuz mentalitetiga xos ayni jihatlar ko'zga tashlanadi.

Kelin bo'ldim – qaynonamga yoqmadim.

Qaynona bo'ldim – kelinimga yoqmadim. [5: 255]

O'zbek xalqi uchun qaynona-kelin munosabatlari har doim birlamchi hisoblanadi hamda bu munosabatlar natijasida yuqoridagi kabi maqollarning yuzaga kelish parametrlari shakllanadi. Darhaqiqat, qaynona va kelin munosabatlarida doimo nizolar yuzaga keladi, natijada kelin bo'lganida qaynonasiga, qaynona bo'lganda esa keliniga yoqmasligini ko'rsatib, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga ishora qilinadi. Shu maqolning davomi sifatida yana bir misolni keltirish mumkin.

Kelining yaxshi bo'lsa, o'g'lingdan ko'r,

O'g'ling yomon bo'lsa, kelinigdan ko'r. [5: 265]

Ushbu misolning ham asl mohiyati qaynona-kelinga borib taqaladi. Sababi agar o'g'il odil bo'lsa, ya'ni ushbu misrada aytilganidek "Kelining yaxshi bo'lsa, o'g'lingdan ko'r", onasini ham, ayolini ham bir xil darajaga qo'ysa, birini biridan kam ko'rmasa, hech qachon bu ayollar o'rtasida muammolar kelib chiqmasligini ushbu maqol misolida ko'rish mumkin. Maqolning keyingi misrasida esa "O'g'ling yomon bo'lsa, kelinigdan ko'r", butunlay teskari mulohaza ifodalangani asrlar davomida shakllangan shu kabi maqollarda o'z aksini topgan.

Yaxshi xotin olib bersang yigitga,

Ming kuni bir kun bo'lib o'tar.

Yomon xotin olib bersang yigitga,

Bir kuni ming kun bo'lib o'tar. [5:265]

Ushbu maqolda er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning inson hayotiga ta'siri juda qisqa va aniq ifodalangan. O'zbek xalqida oila muqaddas sanaladi, shu bois turmush qurish mas'uliyat bilan qaraladigan muhim qadriyat hisoblanadi. Er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklar nafaqat ularning shaxsiy hayotiga, balki farzandlari va yaqinlari hayotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan er-xotin o'zaro kelishmasa ham, farzandlari, oilasi yoki atrofdagilarning gap-so'zlari tufayli bir-birlariga sabr qilib yashashga majbur bo'lishadi. Bunday holatlar ba'zan sabr va murosaning natijasi sifatida oilaning mustahkamlanishiga olib kelsa, ba'zan esa insonning ichki ruhiy holatiga og'ir ta'sir o'tkazishi mumkin. Shu sababli, yaxshi oila qurish va turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlash inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Erдан – xato, xotindan – uzr,
Xotindan – xato, erdan jazo. [5: 266]

Darqaiqat maqollar har bir millatning turmush tarzi, yillar davomida shakllanib kelayotgan urf-odatlar, xalqning tajribalari asosida yuzaga keladi. Yuqoridagi ikkala maqolda ham faqatgina o'zbek millatiga xos jihatlarni ko'rish mumkin, ya'ni bu misollarda er-xotin munosabatlari shu darajada qisqa fikr orqali ifodalanganiga qaramay, butun bir oilaviy muammolarni ikki misra orqali to'raligicha yoritilganini ko'rish mumkin.

Les bons comptes font les bons amis – Hisobli do'st ayrilmas.

Yuqoridagi fransuz maqolini tarjima qilish jarayonida ushbu fransuzcha maqolning aynan o'zbekcha muqobili borligini va ushbu muqobilda ma'no saqlanganligini, ammo xiazmning butunlay yo'qolib ketganini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shunday ta'sir bilan yumorist Alfons Alle maqolni transformatsiya qiladi: *Partir, c'est mourir un peu... Mais mourir c'est partir beaucoup..* Bu usulda paydo bo'lgan xiazmlarda ma'no orttirilishi yaqqol namoyon bo'ladi. Misol tariqasida o'zbek va fransuz xiazmatik maqollaridan namunalar keltiriladi:

1) tovushli xiazm: Erning otini xotin chiqarar, Xotinning otini o'tin chiqarar. (maqol)

2) leksik xiazm: Och bola to'q bola bilan o'ynamaydi, To'q bola och bolani o'ylamaydi.

Un trésor n'est un ami, mais un ami est un trésor. (proverbe)

3) sintaktik xiazm:

Sen baloga tegmasang, Baloning senda ne ishi bor. (5:240)

Il faut vivre ses rêves et non rêver sa vie. (proverbe)

Celui qui veut être jeune quand il est vieux, doit être vieux quand il est jeune. (proverbe)

A jeune homme – vieux cheval, à cheval jeune – vieil homme. (proverbe)

A jeune femme et vieux mari, des enfants: à vieille femme et jeune mari, des querelles. (proverbe)

Burun tortildi – dum tiqildi, dum tortildi – burun tiqildi.

Yaxshi odam qo'yga qarshi, lekin qo'y yaxshi odamga qarshi. Vin sur lait, bien fait : lait sur vin, venin. Maqollarda xiazmatik tuzilish juda barqaror. U turli tillarda o'xshash maqollarni qayd etadi.

Bir kishi ming kishi uchun,

Ming kishi bir kishi uchun. [5: 268]

Tous pour chacun,

Chacun pour tous. (proverbe)

Keltirilgan misol berilgan maqol stilistik, semantik va grammatik jihatdan ham bir xil va tarjima jarayonida ham ikkalasi bir xil ma'noga ega. Bundan ko'rinib turibdiki, xiazm barcha tillar uchun barqaror xiazmatik tuzilishga ega.

Pora kanda bo'lmasa, (fonetik xiazm: tovush almashinuvi)

Parokanda bo'lasan. [5: 42]

Yaxshi bo'lsa – bola, (tovush xiazmi)

Yomon bo'lsa – balo. [5: 277]

Bu misollarda esa tovush almashinuvi xiazmini ko'rish mumkin, ya'ni a va o tovushlari o'zaro kesishgan X shaklida turibdi. Pora va paro hamda bola va balo so'zlarida tovush xiazmini ko'rish mumkin. Yuqoridagi misollar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, xiazm nafaqat qo'shma gaplar tarkibida, balki so'zlar tarkibida ham uchrash mumkin.

Tahlillar jarayonida xiazmning fransuz maqollaridan ko'ra o'zbek maqollarida aktual ekanligi aniqlandi, ya'ni xiazm stilistik figurasi o'zbek xalq maqollarida juda ko'p qo'llangan va ularning ekspressiv ohangdorligini oshirishga xizmat qilgan deyish mumkin.

Les fous sont plus utiles aux sages que les sages aux fous

Baxil avliyo bo'lmas,

Avliyo baxil bo'lmas. [5: 168]

O'zbek va fransuz tillaridagi maqollarni qiyoslash jarayonida maqollarning ma'no jihatidan umumiy taraflari ikkala millat mentaliteti urf-odatlarini turmush tarzida umumiy o'xshash o'ziga xos taraflari borligini ko'rsatadi. Bundan tashqari ikkala maqolda ham so'zlarning semantik jihatlari deyarli bir xilligini ko'rish mumkin.

Les fous – aux sages

Baxil –avliyo

les sages – aux fous

Avliyo – baxil

Garchi, tarjimada maqollar umumiy ma'noga ega bo'lmasada, leksik-semantik vazifa jihatidan bir xil tuzilishga ega. Fransuz tilidagi maqolda qo'llangan les fous so'zini o'zbek tilidagi baxil so'zi bilan vazifa jihatdan bir xil o'rinda qo'llash mumkin, les sages so'zini esa vazifa jihatidan avliyo so'zi bilan sinonim tarzida qo'llanishi mumkin.

Sinonimiya asosida qurilgan xiazmatik birikma misolini fransuz xiazmatik birikmasini Tamise (Temza) va Seine (Sena) gidronimlari qatnashgan omonimiya asosida ko'ramiz:

- J'ai inventé un système pour la purification de l'eau qui va contenter à la fois les gens de Londres et ceux de Paris. Suppose un siphon qui reunit et la Tamise et la Seine...

- Alors?

- Alors, les eaux de Seine seront tamiseées et les eaux de la Tamise seront saines.

Bu yerda soʻz birikmalari oʻyinida omofonlar ham (Siene – saine “sogʻlom, toza”) omograflar va hatto paronimlar ham (tamiser feʻlidan olingan sifatdosh tamise “tozalangan”, na semantik, na etimologik jihatdan hech qanday bogʻliqligi boʻlmagan Temise “Temza” bilan bogʻlanadi) aniqlangan.

Shuningdek bu misolda nafaqat omonimik, paronimik jihatlari balki fransuz madaniyatiga xos jihatlar ham koʻzga tashlanganini koʻrish mumkin. Sena va Temza daryolari haqida fikr yuritilganda bu faqatgina Fransiya davlatidagi ulkan daryolarni yodga soladi. Bundan tashqari bir qancha fransuzcha misollardan kelib chiqib, aytish mumkinki, xiazmlar nafaqat stilistik vosita sifatida tilshunoslikning koʻpgina yoʻnalishlarida yangicha qarashlarni shakllantirishga balki, lingvokulturologiya sohasida ham ayrim manbalarining yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Buyuk fransuz yozuvchisi Pyer Kornel oʻz asarida keltirib oʻtgan, har ikkala misolda ham aynan fransuz mentalitetini aks ettiruvchi xiazmatik konstruksiyalarni koʻrish mumkin. Masalan:

Qu'on parle mal ou bien du fameux cardinal

Ma prose ni mes vers n'en diront jamais rien :

Il m'a fait trop de bien pour en dire du mal,

Il m'a fait trop de mal pour en dire du bien.

Vers sur le cardinal de Rechellieu composés à l'occasion de la mort du cardinal. [2: 45]

Yuqoridagi misolda ham faqatgina Fransiya davlatida joriy qilingan lavozim (Cardinal – papa maslahatchisi) haqida gap boradi va bu boshqa davlatlarga xos boʻlmagan tomonlarini koʻrsatadi.

Xiazm, koʻrsatganimizdek, badiiy nutq uchun juda xarakterlidir. “U faqat shakllardan foydalanadi, deb aytishning oʻzi kifoya emas – u ular bilan birga yashaydi” [3: 26] xiazmga murojaat qilib, uning barcha tarkibiy qirralarini, ushbu tuzilma yashiradigan eng yaxshi semantik va hissiy nyuanslarning barcha imkoniyatlarini taʼkidlaydi, aniqrogʻi, ochib beradi.

Fransuz maqollaridagi kabi oʻzbek maqollarida ham parallelizmlarni koʻrish mumkin. Sintaktik parallelizm asosida qurilgan yuqoridagi fransuz maqoli “Loin des yeux, loin du cœur” tarjimada “Koʻzdan yiroq koʻngildan yiroqdir” degan maʼnoni anglatadi. Buni qarangi, xuddi shunday maqolning oʻzbek tilida ham muqobili mavjud boʻlib, buni “Oʻzi yoʻqning koʻzi yoʻq” yoki “Koʻzdan nari – mehrdan nari” kabi muqobillari bilan berishimiz

Turli tizimga mansub bo'lgan o'zbek va fransuz tillari o'rtasidagi bu o'xshashlikni adabiy aloqalar natijasi sifatida ko'rish mumkin. Bundan tashqari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ham fransuz olimi Jaubert Amadi tarjimasi orqali fransuz xalqi madaniyatida ham keng yoyildi. Asardagi hikmatlarning o'zlashishi natijasida keyingi davrlarda ularning ayrimlari fransuzlarning buyuk siymolariga nisbat berib aytila boshladi. Masalan, ikki-uch yil avval ijtimoiy tarmoqlarda "Agar sher itlarga boshchilik qilsa, itlar sherlar kabi jang qiladilar, agar it sherlarga boshchilik qilsa, sherlar itlar kabi bo'ladilar" mazmunidagi aforizm Napoleon Bonapartga nisbat bergan holda e'lon qilindi. Bu hikmatli so'z bevosita "Qutadg'u bilig"ga tegishlidir. Shunisi ham borki, bu hikmatda ham xiazm ko'zga tashlanadi.

O'zbek va fransuz maqollari o'rtasidagi haqiqiy munosabatlarni va ularda xiazmning ishlatilishini ko'rib chiqib, stilistik jihatdan, ya'ni sintaktik birliklardan foydalanish xiazmning qo'llanilishi jihatidan o'zbek xalq maqollarida mutlaq ustunlik borligi aniqlandi.

O'zbek paremik birliklarining fransuz paremiyalariga hech qanday aloqasi yo'qdek tuyulsa-da, tahlillar natijasida ular orasida ma'lum darajadagi o'xshashlik va farqlar mavjudligi aniqlandi. O'zbek maqollarining o'ziga xos xususiyatlari fransuz maqollariga o'xshab, faqat bir tekislikda kesishmaydi, balki parallellik, binar struktura va qiyosiy tuzilish kabi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, har bir xalqning o'z milliy o'zligi, mentaliteti va azaliy qadriyatlarini aks ettiruvchi maqollar lingvokulturologik jihatdan qiyoslanganda, ularning orasida tabiiy ravishda sezilarli farqlar mavjud ekani yaqqol ko'rinadi.

Chiasm in Paremic Units – as a Tool for Intercultural Communication

Zebiniso Bekmuradova¹

Abstract: In world linguistics, analyzing the chiasm phenomenon specific to a particular language from a semantic-stylistic perspective and comparing it with a genetically unrelated language helps identify similarities and differences between the two languages. This, in turn, contributes to the development of linguistics and the emergence of new terms. The study of the chiasm phenomenon has been an object of research for linguists for many years. However, in modern linguistics, both approaches to studying chiasm and views on its linguistic status remain diverse. This article discusses the use of chiasmus not only in poetic texts but also in folklore genres. Special attention is given to the widespread use of chiasmus in folklore texts, particularly in proverbs. Additionally, the article focuses on the similarities and differences of chiasmus in intercultural linguistic and cultural aspects.

Keywords: *Chiasmus, paremiology, proverb, folklore, parallelism.*

References

- Amanov, Abdugani (2016), Characteristics of paremias and their study as a cultural heritage // Scientific bulletin, - Samarkand. #4. - b. 215.
- Corneille, Pierre (1862), Poésies diverses, Texte établi par Charles Marty-Laveaux, Hachette, tome X.
- Dubois, Jean (1973), Éléments de linguistique française. Paris Larousse. - p. 26.
- Mamaziyayev, Ollaberdi (2004), Chiasm and Gradation in Uzbek Poetic Discourse. Philol.fan.nomz...dis. autoref. - Ferghana. - b. 44
- Uzbek folk proverbs (2003), Compilers: T. Mirzaev, A. Musokulov, B. Sarimsakov; responsible seal: Sh. Turdimov - Tashkent: East.
- Yusuf Khos Hojib (2016), Kutadgu bilig (Modern Uzbek language teacher. F. Ravshanov). – Tashkent: Akademnashr. – p. 544.

¹ *Bekmuradova Zebiniso Erkinovna* – Doctor of Philosophy in Philology, PhD. Acting Associate Professor of Tashkent International University of Financial Management and Technologies.

E-mail: bekmurodovazebo@tift.uz

ORCID ID:0000-0003-4314-1009

For citation: Bekmuradova Z.E. 2025. "Chiasm in paremic units – as a means of intercultural communication". *Uzbekistan Language and Culture*, 3(2): 104-112.